



ZEBO MIRZO SHE`RLARIDA METAFORALARNING O`RNI

Nabiyeva Dilorom Nodirbek qizi

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti filologiya va tillarni o`qitish

o`zbek tili yo`nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Metafora badiiy tasvir vositalaridan keng qo`llanadigani. Har qanday asarni u xoh badiiy bo`lsin, xoh ilmiy metaforik ma`nosiz tasavvur etib bo`lmaydi. Metaforani kuchi shundaki, jumlani qisqa, aniq va ta`sirchan aks ettiradi. Har qanday lingvistik hodisa kabi u ham lisoniy asosga ega. Ushbu maqolada Zebo Mirzo she`rlarida qo`llanilgan metaforalar o`rni ko`rib chiqiladi.

**Kalit so`zlar:** metafora, emotsionallik, lirik sub`yekt, metaforik tafakkur.

KIRISH

Poetik matnlarda yozuvchining o`z oldiga qo`ygan maqsadiga bog`liq holda she`rda tasvirlangan mavzuning qanday ekanligiga qarab lisoniy vositalar muhim uslubiy vosita yaratishga xizmat qiladi. Ana shunday bo`yoqdorlikni yuzaga keltiruvchi tasvir vositalaridan biri metaforadir. Badiiy matnda qo`llanilgan metaforalar o`z ta`sirchanlik xususiyati bilan o`quvchining his-tuyg`ulariga ta`sir etadi, uni zavqlantiradi, uni turli fuhiy holatlarga soladi. Zebo Mirzo ijodida qo`llanilgan metaforalar birgina shoirning ifodalamoqchi bo`lgan fikrlari pardozi sifatida ko`rinmay, shoirning ruhiyati, ichki kechinmalari va his-tuyg`ularining obrazlilik bilan yaxlit holda o`quvchiga yetkaziladi.



ASOSIY QISM

Zebo Mirzo ijodi ham metaforalarga boydir. Uning sheʼrlaridagi metaforalar takrorlanmas, taʼsirchandir. Endi shoira ijodidagi qoʻllanilgan metaforalarga eʼtibor qaratsak:

Derazani chertib yomgʻirlar oʻtdi

Kechagina bizlar qoldirgan izdan.

Parishon bogʻlarni tumanlar yutdi,

Sevgilim, ne kechdi xayolingizdan?

Ushbu parchada ‘*parishon bogʻlar*’ metaforasi qoʻllangan. Zebo Mirzo ijodiga nazar soladigan boʻlsak, uning ijodi bugungi kun oʻzbek sheʼriyating yorqin namunasi. Shoir sheʼrlarida yetakchi mavzu bu ishqdir. U misradagi soʻzlarni shunday tanlaydiki, har bir soʻz bir-birini toʻldiradi. ‘*parishon bogʻlar*’ metaforasida yor visoliga yeta olmagan oshiq uchun hatto bogʻlar ham parishon koʻrinishini, bogʻ ham oshiq iztiroblari koʻrib maʼyus tortayogani tasvirlangan. Aslida, parishon soʻzi koʻproq inson ruhiy holatini ochib berishda qoʻllanadi. Shoir bu soʻzni bogʻga nisbatan qoʻllash orqali maʼno taʼsirchanligini ortishiga erishgan.

Seni juda achchiq yigʻlatdim

Laʼnat toshing otding tonggacha.

Yopilmadi osmon eshigi,

Yurib chiqdim oʻzdan tonggacha.



Haqiqiy sheʼr shoirning yuragidan toʻkilgan satrlardir. Va bu satrlar orqali ijodkor oʻz menini namoyon qiladi. Yuqoridagi parchada *‘achchiq yigʻlatdim’* metaforasi qoʻllangan. Baytda metaforaning vazifasi yuksak. U subyektga kayfiyat bagʻishlagan. Achchiq soʻzini yigʻlamoq soʻzi bilan birgalikda qoʻllash orqali yigʻining darajasi kuchliroq ekanini va bunga koʻngil sabab boʻlayotganini ochib bergan. Agar misra *‘Seni juda yigʻlatdim’* tarzida berilganidan yigʻining oddiy koʻrinishi namoyon boʻlar edi holos. *‘Seni juda achchiq yigʻlatdim’* koʻrinishida berib, emotsionallikka erishgan.

Metaforalar shoir sheʼriyatida turli koʻrinishda namoyon boʻladiki, bu ijodkorning tafakkur doirasi keng ekanligi, xalqimizning urf-odatlar va qadryatlaridan qanchalik xabardorlini bildiradi.

Chiqib ketolmaymiz ikkalamiz ham

Bu toʻgʻri yoʻllarning toshi yoniydi.

Bu qadim bogʻlarda, sirli bogʻlarda,

Siz bilan adashib ketsam qaniydi.

Ushbu parchada sirli bogʻ metaforasi qoʻllangan. Shoiraning bu mavzudagi sheʼrlari gʻamgin, tushkin boʻlsada, oʻzgacha sirli olamiga egadir. Bogʻ misolida butun bir ijodkor hayotini oladigan boʻlsak, ana shu sirli hayotda yori bilan birga qolishni, yor bilan hatto adashib qolishga ham tayyor ekanini tasvirlaydi.



XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Zebo Mirzo asarlarida qo`llanilgan metaforalar inson qalb dunyosini ochib berishga, ishq savdosi tufayli oshiq boshiga qanday ishlar tushishi va ana shu paytdagi ko`ngil hislarini to`laqonli ochib berishga xizmat qilgan. Bunday she`rlarni chiroyli so`zlar majmuasi deb emas, balki vatanparvarlik, erksevarlik, ishq-muhabbat ulug`langan o`zbek she`riyatining yorqin namunasi deb qarash lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zebo Mirzo She`rlari [https://tafakkur](https://tafakkur.net) .net
2. Zebo Mirzo she`rlari haqida batafsil ma`lumot <https://ziyo-uz>
3. Zebo Mirzo ISHQ Toshkent Akademnashr-2011.
4. <https://cyberleninka.ru>